

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA SO'Z MA'NOSI USTIDA ISHLASH DOLZARB MUAMMO SIFATIDA

Husenova Muhtaram Husniddin qizi

Navoiy davlat universiteti 13.00.02-

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lim) ixtisosligi 1-kurs

tayanch doktaranti

Anotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z ma'nosi ustida ishlashning dolzarb muammolari, masalari o'rganilgan hamda muhim jihatlari sanab o'tilgan. Boshlang'ich sinf o'quchilarining nutqini rivojlantirishda so'z ma'nosi ustida ishlashning alohida ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, ona tili, ta'lim jarayoni, so'z ma'nosi, to'g'ri va ravon gapirish, til, nutq madaniyati, o'qituvchi, nutqiy faoliyat.

РАБОТА НАД ЗНАЧЕНИЕМ СЛОВ КАК АКТУАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация: В данной статье изучаются актуальные проблемы и вопросы работы над значением слов на уроках родного языка в начальных классах и перечисляются важные аспекты. Подчеркивается, что работа над значением слов имеет особое значение в развитии речи младших школьников.

Ключевые слова: начальная школа, родной язык, учебный процесс, значение слов, правильная и беглая речь, язык, культура речи, учитель, речевая деятельность.

THE WORK ON THE MEANING OF THE WORD IS AN ACTUAL PROBLEM IN THE LESSON OF THE PRIMARY CLASS'S THE NATIVE LANGUAGE

Abstract: This article examines the current problems and issues of working on word meanings in primary school native language classes and lists their important aspects. It is emphasized that working on word meanings is of particular importance in developing the speech of primary school students.

Keywords: primary school, native language, educational process, word meaning, correct and fluent speaking, language, speech culture, teacher, speech activity.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta‘limining bosh maqsadi – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish, to‘g‘ri va ravon gapirish, yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir. Shu bilan birga, ona tili ta‘limi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirish, savodxonlikni mustahkamlash va ularni mustaqil ijodiy fikrlashga o‘rgatishga xizmat qiladi.

K.D.Ushinskiy boshlang‘ich sinflar o‘quv predmetlari tizimida ona tili faniga alohida ahamiyat berilib, u asosiy o‘qitiladigan fanlar sohasiga kiradi: “Ajoyib o‘qituvchi bo‘lgan kishi ona tilidan bolaga ko‘p narsani o‘rgatadi. Bola ikki uch yil ichida shuncha ko‘p narsa o‘rganadiki, ko‘p narsa bilib oladiki, 20 yil kun bilan metodik jihatdan juda to‘g‘ri o‘qiganda ham uning yarmicha o‘rgana olmaydi. Ona tilini ulug‘ pedagogligi ham ana shundadir”, - deydi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘rganishga katta ahamiyat beriladi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘rgatishning asosiy vazifalar: o‘quvchilarga to‘g‘ri va aniq talaffuz qilishni o‘rgatish; yozma nutqni rivojlantirish, imlo va punktuatsiya qoidalarini o‘zlashtirish; lug‘at boyligini oshirish va muloqot madaniyatini shakllantirish; matnni tushunish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish; o‘z fikrlarini grammatik jihatdan to‘g‘ri ifodalashga o‘rgatish. Umuman olganda, boshlang‘ich sinflarda ona tili ta‘limi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tilning mohiyatini anglashga va uni hayotda faol qo‘llashga yo‘naltiradi.

Til – inson tafakkuri va muloqotining asosiy vositasi bo‘lib, uning rivojlanishi yoshligidan boshlanadi. Boshlang‘ich sinflarda so‘z ma‘nosi ustida ishlash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy madaniyatini shakllantirish, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va kelajakdagi ta‘lim jarayoniga mustahkam poydevor yaratishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, bu jarayonda turli muammolar yuzaga keladi, shuning uchun ushbu masala dolzarb muammo sifatida o‘rganishga arziydi. “Hammamizga ayonki, bugungi murakkab globallashuv davrida jamiyatimizda milliy g‘oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, yoshlarimizni turli zararli g‘oya va tahdidlardan asrash, ularni o‘z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda⁸³”, - deydi yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning nutqini o‘rganish murakkab jarayon bo‘lib, ularning nutqini suhbatlashish, fikrlashga undash, tafakkurini o‘stirish ehtiyoji orqali o‘stirish mumkin. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning so‘z boyligini rivojlantirish va yangi so‘zlarning ma‘nosini tushuntirish bir qator qiyinchiliklarga duch keladi. Ushbu masala quyidagi sabablar tufayli dolzarb hisoblanadi:

Til rivojlanishining boshlang‘ich bosqichi – bu davrda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari asosiy lingvistik bilimlarni o‘zlashtiradi, shuning uchun so‘z ma‘nolarini to‘g‘ri tushunish kelajakdagi muloqot ko‘nikmasi va yozuv malakalari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

⁸³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 30.09.2020. www.president.uz

Nutqiy madaniyati va fikrlash rivoji – so‘zlarning ma’nosini chuqur anglash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkurini rivojlantiradi va ularning fikrlarini aniq ifodalash imkonini beradi.

O‘qish va yozuv savodxonligi – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni tushunishi bevosita ularning so‘z boyligiga bog‘liq. So‘z ma’nosini tushunmagan o‘quvchilar matn mazmunini to‘laqlonli anglay olmaydilar.

Shaxsiy va ijtimoiy muhitga moslashish – lug‘at boyligining yetishmasligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘z fikrlarini ifodalashda qiyinchiliklarni tug‘diradi, bu esa ularning ijtimoiy hayotiga ham ta’sir qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchi nutqini so‘zning ma’nolari bilan boyitish, uni nutqiy faoliyatga tayyorlash o‘ta muhimdir. Shuni unutmaslik lozimki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqining rang-barangligi, jozibadorligi, ta’sirchanligi, yoqimlilik, sofligi va nafisligi uning tilimizdagi ma’nodosh so‘zlarni nechog‘lik bilish darajasiga bog‘liq.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yuqori darajada rivojlangan og‘zaki va yozma nutq qobiliyatlari o‘z-o‘zidan tabiiy holda rivojlanmaydi, buning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining so‘z zaxiralarini muttasil ravishda qadam-baqadam oshib borishi, so‘zlarni ma’nolarini o‘rganib, mustaqil holda nutqiy faoliyatda unumli foydalanish orqali erishiladi.

Boshlang‘ich sinflarda so‘z ma’nosini o‘rganish jarayonida quyidagi asosiy muammolar mavjud:

-leksik zahiraning cheklanganligi – boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hali yetarli darajada boy lug‘atga ega bo‘lmasligi, bu esa yangi so‘zlarni tushunishda qiyinchilikga duch kelishadi (masalan, Amir Temurning nevarasi Mirzo Ulug‘bek Samarqand shahri yaqinida o‘z davrining eng katta **rasadxonasini** qurdiradi. 2-sinf Ona tili 1-qism 38-bet);

-so‘zlarning turli ma’nolarga ega bo‘lishi – ba’zi so‘zlarning bir nechta ma’nosi mavjudligi yoki sinonimlar orqali turlicha ifodalanishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun chalkashlik yoki tushunmovchilik tug‘dirishi mumkin (masalan, “oy” – osmondagi jism, kalendar birligi, “urug‘” - bir ajdoddan tarqalib, umumiy bir nom bilan ataluvchi qonqarindoshlik jamoasi, avlod, o‘simliklarning urug‘i);

-turli sheva va dialektlarning ta’siri – ayrim boshlang‘ich sinf o‘quvchilar oilasida, aososan, o‘zining shevasida gaplashgani sababli adabiy til qoidalariga mos so‘zlarni tushunishda qiyinchiliklarga duch keladi (masalan, aynak- ko‘zoynak, barak- chuchvara);

-tasviriy fikrlashning yetarli darajada shakllanmaganligi – ba’zi mavhum tushunchalarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari aniq tasavvur qila olmaydi, bu esa so‘zlarning ma’nosini tushunishga to’sqinlik qiladi (masalan, O‘zbek xalqi-**mehmondo‘st** xalq. Har bir mehmon **e’zozlanadi, hurmat qilinadi.**);

-dars jarayonida interaktiv metodlarning kam qo‘llanilishi – ba’zi hollarda o‘qituvchilar so‘z ma’nosini tushuntirishda faqat og‘zaki izohlash bilan cheklanib, vizual yoki tajribaviy

usullardan foydalanmaydi, aslida esa har xil metodlardan foydalanishi kerak, lekin ba‘zan noto‘g‘ri yoki yetarli bo‘lmagan usullar tanlanadi.

Boshlang‘ich sinflarda so‘z ma‘nolarini tushuntirish jarayoni dars mashg‘ulotining bir necha daqiqasini tashkil qilishi va darsning asosiy mavzusidan o‘quvchilarni chalg‘itmasligi zarur. Buning uchun har bir boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi dars mashg‘ulotlariga oldindan puxta tayyorlanishi, ma‘nosi tushuntiriladigan so‘zlarni to‘g‘ri tanlashi, ularni izohlashda qulay usul va metodlardan foydalanishi hamda darsing qaysi qismida tushuntirishini aniqlab olishi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinflarda so‘z ma‘nolari ustida ishlash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Fikrni mustaqil, ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta oladigan, nutqiy madaniyati shakllangan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining boshlang‘ich sinf ona tili darslarida nutqini o‘stirish, ularning lug‘atini boyitish, muloqotga kirisha olish va fikr ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurdir. Shunday ekan, so‘z ma‘nosini tushuntirish ustida ishlash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini lug‘atini boyitadi, nutqini ravonlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Maxmudova D.M. Boshlang‘ich ta‘limda so‘z ma‘nolari ustida ishlash orqali o‘quvchilarnutqini o‘stirish. Ijodkor o‘qituvchi jurnali, 5 may/ 2022yil/18–son, 10-12- betlar.
2. Husenova M.H. The importance of using picture-explanatory educational dictionaries in working on the meaning of words. Journal of international scientific research. Volume 1, Issue 3, June, 2024. 171-173 pages. Online ISSN: 3030-3508 <https://spaceknowladge.com>.
3. S. D. Kuranov. 2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” 1-qism Novda edutainment. Toshkent 2023-yil.
4. Бахриддинова Б. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол. фан. докт (DSc) ... дисс.—Самарқанд, 2020. – 260 б
5. Y. Odilov. “Istiqlol yillari o‘zbek lug‘atchiligiga chizgilar” maqolasi. Til va adabiyot jurnali. 2021-yil, 11-son, 4-bet.
6. Husenova M. Boshlang‘ich sinflarda so‘zma‘nosi ustida ishlashda rasmlil-izohli o‘quv lug‘atlaridan foydalanishning ahamiyati. Eurasian journal of entrepreneurship and pedagogy. Volume2, Issue4 June-July2024, SJIF: 5.061. www.in-academy.uz